

**SHIMOLIY AFG'ONISTON O'ZBEKLARI: XALQ SIFATIDA
SHAKLLANISH TARIXI VA SHIMOLIY AFG'ONISTONDA
YASHOVCHI O'ZBEK URUG'I NOMLARINING ETIMOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti

TALASH ALAWUDDIN

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Shimoliy Afg'onistondagi o'zbek xalqining etnik-madaniy holati va Afg'onistondagi o'zbeklarning ijtimoiy hayotida urug'chilik hamda Afg'onistondagi o'zbek urug'larining nomlanishiga, shuningdek, urug'lar va ularning joylashuviga e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Etnografiya, To'y, Shimoliy Afg'oniston, Leksika, urug'lar.*

**УЗБЕКИ СЕВЕРНОГО АФГАНИСТАНА: ИСТОРИЯ
ФОРМИРОВАНИЯ КАК НАРОДА И ЭТИМОЛОГИЯ НАЗВАНИЙ
УЗБЕКСКИХ ПЛЕМЕН, ПРОЖИВАЮЩИХ В СЕВЕРНОМ
АФГАНИСТАНЕ**

Аннотация: *В данной статье рассматривается этнокультурное положение узбекского народа в Северном Афганистане и роль кланов в общественной жизни узбеков в Афганистане, а также наименование узбекских кланов в Афганистане, а также кланы и их местонахождение.*

Ключевые слова: *этнография, свадьба, Северный Афганистан, лексика, кланы.*

**UZBEKS OF NORTHERN AFGHANISTAN: THE HISTORY OF
FORMATION AS A PEOPLE AND ETYMOLOGY OF THE NAMES OF
UZBEK TRIBES LIVING IN NORTHERN AFGHANISTAN**

Abstract: *This article discusses the ethnocultural situation of the Uzbek people in Northern Afghanistan and the role of clans in the social life of Uzbeks in Afghanistan, as well as the name of the Uzbek clans in Afghanistan, as well as the clans and their location.*

Keywords: *ethnography, wedding, Northern Afghanistan, vocabulary, clans.*

Hozirgi Afg'oniston diyorida yashab kelayotgan o'zbeklarning bu hududga qanday joylashib qolganligi, ularning kelib chiqish ildizlari, tarixini o'rganish to'la nihoyasiga yetkazilmagan. Shundan bo'lsa kerak ba'zi manbalarda hatto bu yerda yashayotgan o'zbeklarga nisbatan diaspora (o'z vatanidan tashqarida yashovchi etnik guruh) atamasi ham ishlatiladi. Lekin hozirgi Afg'onistondagi o'zbeklarning shakllanish tarixiga ilmiy jihatdan yondashadigan bo'lsak, ularni diaspora emas yaxlit bir millat o'laroq evolutsion jarayonlarni bosqichma-bosqich boshidan o'tkazib bir millat bo'lib vujudga kelganligini bilib olamiz.

Afg'oniston shimolida yashab kelayotgan turkiy urug'larning paydo bo'lish tarixi va o'zbeklarning millat sifatida shakllanish bosqichlarini ilmiy jihatdan asoslab beramiz. Afg'onistonda Turkiy urug'larning paydo bo'lish tarixini V asrning ikkinchi yarmi ya'ni Eftallar va Xioniyalar davlatining paydo bo'lishi bilan bog'laydilar. Eftal urug'lari Afg'oniston hududlarini bosib olgach bu yerga ko'plab turkiy qavmlar Sirdaryo va Orol bo'ylaridan ko'chib kelib, o'rnamshib qolishdi. Bu urug'lar keyinchalik Turk xoqonligi davrida ancha o'troq hayotga moslashib bu yerda turkiy ulusning siyosiy nufuzi yanada oshdi.

VII asr oxiri va VIII asr boshlarida islom dininig Butun Xuroson hududlariga keng yoyilishi, turli dinlarga e'tiqod qilib kelgan turkiy urug'larning yagona din bayrog'i ostida birlashishlariga zamin yaratdi.

XIII asr birinchi yarmda Mo'g'ullar bosqini davrida turkiy xalqlarning etnik qiyofasi yanada murakkab shakl kasb etib bordi. Mo'g'ullar qo'shini safida ko'plab turkiy urug'lar ham mavjud edi. Natijada mo'g'ul urug'lari bu yerda turkiy xalqlar tarkibiga singib ketishdi. Bu jarayon o'z navbatida Turkiy xalqlarning tarkibida

yangi etnonimlar paydo bo'lishiga olib keldi¹.

Qadim Afg'on diyori Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashganligi, xilma-xil madaniyatlar vujudga kelishi, rivojlanishi uchun beshik vazifasini bajardi. Afg'onistonda yashab kelayotgan o'zbeklarning bu hududda yaxlit o'zbek millati bo'lib shakllanish davri xuddi Movarounnahrda bo'lgani kabi IX-XII asrlarga borib taqaladi. Afg'oniston shimolidagi o'zbeklarning ham etnogenizi nihoyatda boy bo'lib asrlar davomida turli urug' va urug'larning bu hududga ko'chib kelishi hamda bir-biri bilan o'zora yaqinlashib, aralashib ketishi millatning shakllanishida muhim rol o'ynagan.

XVI asrgacha Afg'onistonda yashagan o'zbeklarning aksari qarluq va o'g'uz oilasiga mansub urug'lardan iborat bo'lib, ular o'zlarini umumiy nom bilan turkiylar deb atashgan bo'lsa, Shayboniylar davriga kelib ko'plab o'zbeklarning qipchoq urug'i oilasiga mansub urug'lari ko'chib kelishdi. XVI asrdan boshlab Amudaryoning janubida yashayotgan aksar urug'lar o'zlariga o'zbek degan yaxlit nomni qabul qilishdi.

XIX asrgacha Afg'oniston shimolida yashovchi o'zbeklar va tojiklar Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan. Asrning 50-yillariga kelib, Angliya va Buxoro hukmdori amir Nasrulla o'rtasida munosabatlar sovuqlashdi. Natijada Angliya o'sha vaqtdagi Afg'oniston amiri Do'st Muhammadxonni Buxoroga qarshi urushga gij-gijladi va harbiy yordam ko'rsatdi. Angliyani harbiy qo'lloviga ega bo'lgan Do'st Muhammadxon Amudaryo janubidagi o'zbek viloyatlarini birin-ketin bosib oldi. Edilikda bu hududlarga nisbatan Afg'on Turkistoni yoki janubiy Turkiston atamasi ishlatila boshlandi. Do'st Muhammadxon yangi egallangan hududlarda davlat vakili etib o'g'li Afzalxonni tayinladi. Inglizlarni bu hududlarni bosib olishdan ko'zlagan asosiy maqsadi O'rta Osiyoni zabt etishga kirishgan Rossiyani Amudaryodan janubdagi yerlarga ko'z olaytirishini oldini olishdan iborat edi.

Barakzay sulolasi davrida Afg'oniston inglizlar ko'magi va madadida sekin-asta kuchayib, hududlarini shimolga tomon kengaytirib bordi. U payti

¹ Oltoy Nurulloh. O'zbek tili so'zligi. — Shibirg'on (Afg'oniston): NS, 2007.

Amudaryoning janubiy sohilida Buxoro amirligiga qisman bo'ysunuvchi Balx, Qunduz, Shibirg'on, Maymana singari qator bekliklar mavjud edi. Amir Do'stmuhammadxon Barakzay, asosan, o'zbeklar istiqomat qiluvchi yangi bo'ysundirilgan shimoliy bekliklarni yagona Turkiston viloyatiga birlashtirdi hamda bu yerga pushtunlarni ko'chirish siyosatini boshlab berdi.

Shunday qilib hozirgi Afg'oniston hududlari XIX asrda sun'iy ravishda yangi hududlarni bo'ysindirish evaziga vujudga keldi.

Afg'onistonda polietnik davlat sifatida 20 dan ortiq millat vakillari istiqomat qilishadi. O'zbeklar Afg'oniston hududidagi uchinchi eng yirik millat hisoblanadi. Asosan, mamlakatning shimolidagi Turkiston va Qatag'on mintaqalari joylashgan 8 viloyat aholisini aksarini o'zbeklar tashkil etadi. XX asrning 70-yillarida Afg'oniston aholisi 16 millionni tashkil etgan bo'lsa shundan 2 millionini o'zbeklar tashkil etgan. Hozirgi kunda Afg'oniston aholisi umumiy soni 30 milliondan oshiqni tashkil etadi, shundan o'zbek millatiga mansub afg'oniston fuqarolarining umumiy soni to'g'risida ma'lumotlarning ba'zilarida 3-5 million deb berilsa, ba'zilarida 7-8 million deb beriladi. Afg'onistondagi o'zbeklarning soni haqida aniq ma'lumotlarning yo'qligiga asosiy sabab o'tgan 40 yildan buyon bu yerda aholini ro'yxatdan o'tkazish amalga oshirilmaganligidir. Bundan tashqari urush afg'on xalqini tinimsiz bir joydan ikkinchi joyga ko'chishga majbur bo'lishi bilan bog'liq.

Afg'oniston diyori ko'p millatli bo'lsa-da, o'zbeklar o'zining milliyligini juda yaxshi saqlab qolgan deyish mumkin. Hatto O'zbekistondagi millatdoshlariga nisbatan ham milliy qadriyatlar asl holicha rivojlanib kelmoqda, deb bemalol aytishimiz mumkin. Bu hududda o'tkaziladigan bayramlar, sayllar, to'y va boshqa marosimlarda milliylikka katta e'tibor beriladi.

Saroy urug'i o'zbek qadim urug'laridan biridir. Afg'onistonda Saroy urug'i **Jawzjan, Balx, Sarepul, Faryob** va boshqa viloyatlarda yashaydi.

Afg'onistonda Saroy urug'ini joylar nomidan qidirish mumkin. Saroy joylari Afg'onistonda ko'p. Ba'zi joylarning nomi "Saroy" deb atalgan; masalan,

Foryobning **Sherintakob**ida joylashgan **Saroy** otli bir qishloq ham qayd etilgan.

Balxiy degan urug' saroydan tashqari, Qutchi, Qena, Gaz va Turkmanlar bilan ham qo'shilib ketgan. Chechqa urug'i va Qatag'on urug'si Manos urug'i tarmog'i Qunduz, Takhor, Baghlon viloyatlarida yashaydi. Manbalarda Chechqa, Chechak, Sheshka va Chechiq urug'lari qayd etilgan; Chechak va Chechqa urug'larining bir xil bo'lishi mumkin. Burhoniddin Kashg'ariy „Rahnamoy-i Qatag'on“ hamda Badakhshon risolasida Toliqon yaqinida Chechqalar yashaydi deb yozgan. Lug'ovt esa Sheshka degan urug'ni o'zbek shajarasiga kiritgan. Xoniqov ham Chechqa urug'ini qayd qilgan.

Tarixiy manbalarda quyidagi o'zbek urug'lari va turkiy-teri mo'g'ul urug'lari qayd etilgan: Qorloq, Barlos, Qo'chin, Aralot, Musobozoriy, Qaltato'y, Mo'g'ul. "Turkiy teri-mo'g'ul" deyishdan maqsad – bu turk urug'larining mo'g'ullar bilan yashab, mo'g'ul tilida ham so'zlashganidir. Ushbu urug'larning ota-nomi barcha 92 bobli o'zbek nasabnomalarida uchraydi.

Amir Temur o'rdusida ko'plab urug' nomlari mavjud bo'lgan. Quyidagi 11 ta urug' Amir Temurning "Tuzuk" asarida qayd etilgan bo'lib, u ularga xos tang'alarni bergan: Barlos, Tarxon, O'rxon, Jalo'yir, Tulkichi, Duldo'y, Mo'g'ul, Sultonuz, Tuqoy, Qipchoq, Aralot va Totor.

Mo'g'ul ulusidan Temur Xo'ja o'g'lon "Amir" laqabini olib, eng yuqori martabali amirlardan biri bo'lgan. "Tuzuk"da yana bir qancha urug'lar ota-esasi bo'lgan shaxslar nomi bilan tilga olingan. Masalan: Erkinak, Qaroit, Yassun, Turkman, Qo'chin, Tulan, Juvon, Qovomi, Nemon va boshqalar. Bu urug'larning ba'zilar o'zbek nasabnomasida tasdiqlanadi va uchraydi.

Shayboniylar Movarounnahrni egallaganidan so'ng, Qipchoq dashtidan ko'plab ko'chmanchi o'zbek urug'lari Movarounnahrda kelib, shu yerda joylashgan.

Eng muhim urug'lar quyidagilar edi: Qipchoq, 140, Xitoy, Tuyog'li, Jalo'yir, Mang'it, Saroy, Qaniqlik, Qutchi, Qung'iroq, Qayot, Uyshunchi, Eruchi, Mist, Tema, Yabu, Burqut, Qaroit, Mo'g'ul, Durmon va Kengashlar².

² M.Boboxo'jayevning "Afg'onistonning eng yangi tarixi kitobi" Toshkent-2009

Mo'g'ul Urug'ining Tarixiy Tarqalishi va Hozirgi Holati

Bu urug'lar Mo'g'ullar nahrda yashagan boshqa turkiy urug'lar bilan qo'shib, asta-sekin o'troq turmush tarziga o'tganlar. Siyosiy o'zgarishlar jarayonida ko'plab urug'lar Afg'onistonning shimoliy hududlariga ko'chib o'tgan. Odatda, qishloqlar shu urug'lar joylashganidan so'ng ularning nomlari bilan atalgan. O'zbek mo'g'ul urug'i esa ko'plab tarmoqlarga bo'linib ketgan.

Manbalarda ushbu tarmoqlar qayd etilgan: Sort Mo'g'ul, Cherikche Mo'g'ul, Ali Mo'g'ul, Yakka Mo'g'ul, Xofiz Mo'g'ul, Qara Mo'g'ul, Katta Mo'g'ul, Sori Bosh. Bulardan tashqari, boshqa tarmoqlari ham bo'lishi ehtimol qilinadi. Mo'g'ul urug'ining tarmoqlari O'zbekiston, Tojikiston va Afg'oniston hududlarida mavjud³.

Afg'onistonda bu urug'lar asosan Badaxshon va Taxor viloyatlarida zikr qilingan bo'lsa-da, Balx, Jowzjon, Sari Pul, Bag'lon kabi boshqa viloyatlarda ham uchraydi. Ruscha manbalarga ko'ra, Mo'g'ul, Qarluq, Barlos, Kalta Toy, Cho'ng va Changiz urug'lari Badaxshon hududidagi Ashkoshim atrofida yashab keladi. Xususan, Mo'g'ul urug'ining 12 tarmog'i qayd qilingan. Ular orasida Cherikche Mo'g'ul, Ami Mo'g'ul va Yakka Mo'g'ul zikr etiladi. Barlos va Changiz esa asl mo'g'ul urug'i hisoblanmay, keyinchalik bu urug'dan ajralib chiqqanlar sifatida ko'rsatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islomov, Z. – O'zbek urug' nomlari va ularning semantik tuzilishi. – TDPU ilmiy maqolalar to'plami, 2015.
2. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
3. Karomatov, A. – O'zbek xalqining kelib chiqishi. – Toshkent: Fan, 1985.
4. M.Boboxo'jayevning "Afg'onistonning eng yangi tarixi kitobi" Toshkent-2009
5. Oltoy Nurulloh. O'zbek tili so'zligi. — Shibirg'on (Afg'oniston): NS, 2007.
6. M.Boboxo'jayevning "Afg'onistonning eng yangi tarixi kitobi" Toshkent-2009
7. www.BBC.uzbek.com

³ www.BBC.uzbek.com